

TILSHUNOSLIKDA ADEKVATLIK TUSHUNCHASINING LISONIY TALQINI

A'zamova Gulasal Sodiq qizi
FarDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
gulasalazamova91@gmail.com

Annotatsiya: Tilshunoslikda adekvatlik tushunchasi tilni tushunish va uni talqin qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mavzu tilshunoslarning turli lingvistik kontekstlarda adekvatlik tushunchasini qanday izohlashini o'rganadi. Etarlilik tushunchasi lingvistik talqinning tilning ma'nosi va tuzilishini aniq ifodalash darajasini anglatadi. Turli xil lingvistik nazariyalar va yondashuvlarni o'rganib chiqib, ushbu mavzu lingvistik etarlilikka erishish bilan bog'liq murakkabliklarni yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, adekvatlik, tushuncha, talqin, til

ЯЗЫКОВАЯ ТРАКТОВКА ПОНЯТИЯ АДЕКВАТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аъзамова Гуласал Содик қизи
ФерГУ доктор философии по филологии
gulasalazamova91@gmail.com

Аннотация: В лингвистике понятие адекватности играет важную роль в понимании языка и его интерпретации. Эта тема исследует, как лингвисты интерпретируют понятие адекватности в различных лингвистических контекстах. Понятие адекватности относится к степени, в которой языковая интерпретация точно выражает значение и структуру языка. Исследуя различные лингвистические теории и подходы, эта тема проливает свет на сложности, связанные с достижением лингвистической адекватности.

Ключевые слова: Лингвистика, адекватность, понимание, интерпретация, язык

LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF ADEQUACY IN LINGUISTICS

Azamova Gulasal Sodiq qizi
FerSU doctor of philosophy in philology
gulasalazamova91@gmail.com

Annotation: In linguistics, the concept of adequacy plays an important role in understanding and interpreting language. This topic explores how linguists interpret the concept of adequacy in different linguistic contexts. The concept of

sufficiency refers to the degree to which linguistic interpretation accurately expresses the meaning and structure of a language. Having studied various linguistic theories and approaches, this topic sheds light on the complexities associated with achieving linguistic adequacy.

Keywords: Linguistics, adequacy, understanding, interpretation, language

Kirish

«Adekvat tarjima – 1. Adekvat va to‘laqonli tarjima asl nusxaning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni hamda tilining uslubi, lug‘aviy va grammatik jihatlarini inobatga olgan holda, tarjima tili xususiyatlariga nuqson yetkazmasdan, to‘g‘ri, aniq va to‘laqonli ko‘chirishni talab etadi. 2. Mutlaq teng almashtirish. 3. Kontekst hajmini hisobga olib, uning stilistik xususiyatlarini saqlagan holda tarjima qilish. 4. Tarjima matni asl matnni to‘liq ifodalaydi. 5. Asliyat shakl va mazmun birligini boshqa til vositasida qayta yaratish. Badiiy tarjimaning asl maqsadi. 6. Tarjimon boshqa tilli o‘quvchiga yetkazishni maqsad qilgan kommunikativ ta’sirni to‘laligicha uzatuvchi tarjima. 7. Muallifning barcha g‘oyalarini o‘quvchiga ma’lum bir g‘oyaviy-emotsional badiiy ta’sir ko‘rsatish ma’nosida yetkazuvchi, imkon qadar, muallif tomonidan qo‘llaniladigan barcha obrazlilik, kolorit, ritm va hokazo resurslarni kuzatish mumkin bo‘lgan tarjima. 8. “Badiiy she’riy tarjima nazariyasida – she’riy matn mazmuniga estetik va funksional jihatdan asl nusxaga teng, ya’ni tarjima tilida asl nusxani to‘laqonli va nuqsonlarsiz qayta yaratuvchi matn» . 9. Adekvat tarjima – tarjima tili me’yorlariga rioya qilgan holda asliyat mazmun rejasini yetkazish uchun zarur va yetarli darajada amalga oshiriladigan tarjima. 10. Asl nusxaga mos tarjima. 11. Matnni yangi, to‘liqroq, aniqroq va chuqurroq anglagan holda qilingan badiiy tarjima. Bunda tarjima ikki tilda bir xil fikrlarni, his-tuyg‘ularni, istaklarni ifodalashning turli xil til vositalarini ongli ravishda taqqoslashga aylanadi. 12. Uch komponentni o‘z ichiga oladi: (1) asliyatni to‘g‘ri, aniq va to‘liq qayta tiklash; (2) asliyat tili shaklini tiklash; (3) tarjima tilini qo‘llashda nuqsonga yo‘l qo‘ymaslik. Adekvat tarjimaning mohiyati almashtirish va mosliklardan to‘g‘ri foydalanishdir. 13. Asliyat shakl va mazmun birligini boshqa til vositasida tiklash. Adekvat

tarjima badiiy tarjimaning maqsadidir. Ba'zan "adekvat tarjima" atamasi o'rniga «to'laqonli tarjima» atamasi ham qo'llaniladi. 14. «Tarjima matnida muallif tomonidan qo'llanilgan barcha vositalar aniq ekvivalentlari yoki yetarli darajada o'rnini bosuvchi vositalar yordamida to'liq ifodalangan tarjima» .

Yuqoridagi ta'riflardan «adekvatlik» tushunchasining bir nechta asosiy xususiyatlarini ajratish mumkin: til me'yorlariga rioya qilish, pragmatik va stilistik jihatlarni ko'chirib o'tkazish, kommunikativ munosabatni ko'chirish va qayta tiklash, semantik tarkibni saqlash.

Shu bilan birga, «tarjima amaliyoti nuqtai nazaridan konsepsiya biroz boshqacha ta'riflanadi: adekvat tarjima – bu eng aniq yoki asl nusxaga juda yaqin tarjima bo'lib, nafaqat butun matnni, balki alohida so'z yoki iboralarni ham qayta tiklashni anglatadi» .

Tarjimon-amaliyotchilar tomonidan berilgan adekvat tarjimaning yana bir radikal ta'rifi: matnning adekvat tarjimasi – kompozitsionlik tamoyiliga bo'ysunadigan tarjimadir. Bunda kompozitsionlik tamoyili deganda, matnni u tarkib topgan jummlalarning ketma-ket tarjimasi sifatida o'girish jarayoni tushuniladi. Jummlalarni tarjima qilish, o'z navbatida, so'zlarning tarjimasini talab qiladi. «Mumkin bo'lgan yagona o'zgartirish va qo'shimchalar bu tarjima tili qoidalariga muvofiq grammatik moslashuvdagi o'zgarishlar» .

Biroq adekvatlikka bunday yondashuv faqat badiiy bo'lmagan matnlarni tarjima qilishda samarali bo'ladi. Badiiy, ayniqsa, she'riy matnni tarjima qilish haqida gap ketganda, biz bir muammoga duch kelamiz: tarjima asl nusxadagi nafaqat ma'noni, balki she'riy, badiiy xususiyatlarni, ohang, ritm, go'zallik, matnni qay darajada to'liq yetkaza oladi? Bu ko'p jihatdan tarjimonning dastlab o'z oldiga qanday vazifa qo'yganiga, tarjima qilingan asarni qanchalik tushunganiga bog'liq. Albatta, bu holda tarjimani so'zma-so'z tarjimasiga qisqartirish mumkin emas.

Adabiyotlar tahlili

E.Sepirning fikricha, "umumlashtiruvchi, tildan tashqari, boshqa til vositalari orqali hech qanday yo'qotishlarsiz ko'chirish mumkin bo'lgan va mohiyatan tarjima qilib bo'lmaydigan maxsus lingvistik san'atlar mavjud"[1].

“Har qanday til u aloqa vositasi bo‘lgan jamiyat uchun zarur bo‘lgan darajada ifoda etadi. Har qanday fonetika, har qanday grammatika yordamida istalgan narsani ifodalash mumkin”, - deya E.Sepirning fikrini to‘ldiradi A.Meillet”. [2] Bu qarash asosida adekvatlikni ta‘minlashda lingvistik vositalar muhim o‘rin tutishi nazarda tutiladi.

Taqqoslash

Tilshunoslikda adekvatlik tushunchasi falsafadagi teng, mos, o‘xshash, muvofiq ma’nolarida qo‘llanadi. Shuningdek, tarjima matnlarining lisoniy jihatlari borasida uning ifoda planida teng kelish, moslik ma’nolarida ishlatiladi. Chunki o‘zbek adabiyotining jahon miqyosida o‘z o‘rnini topishida eng asosiy birlamchi vosita tarjima bo‘lib, u xalqlar, millatlar, asrlar, davrlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tovchi vosita hamdir. Chunki tarjimada adekvatlik va qayta yaratish muammosi yuzaga chiqadi. Bu muammo esa bevosita lingvokognitiv jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonning asosida milliy til turadi. Chunki «milliy ong milliy tilsiz mavjud bo‘la olmaydi»». O‘zbek tilida yuzaga kelgan asarlarni o‘zga tillarga o‘girishda uning lisoniy jihatlari muhim o‘rin tutadi. Chunki tarjimdagi lingvokognitiv jarayon bevosita olamning lisoniy manzarasi bilan bog‘liq bo‘lib, «...lisoniy birliklar o‘z-o‘zicha emas, balki ular aloqalangan kognitiv tuzilmalar bilan birgalikda o‘rganiladi»

Tarjima kitobxon tasavvurida o‘zga dunyoni tasvirlaydi, chunki har bir xalqning o‘z tarixi, san’ati, madaniyati, ya’niki o‘ziga xos tasavvur va tushunchalari bor. Ijodkor o‘z ona tilida ijod qilib shu jihatlarni ko‘rsatib bersa, tarjimon xuddi shunday holatda kitobxonga yetkazib beradi. Kitobxon shu tarzda boshqa millat, xalqning madaniyati, uning orzu istaklarining shu orqali tafakkur qiladi.

Shunday ekan, «Inson qancha ko‘p narsa o‘rgansa, shuncha baxtli yashaydi» naqli ostida o‘rganishning eng dolzarb yo‘llaridan biri tarjima deb qarasak aslo xato bo‘lmaydi. O‘rganib bo‘ladigan harakat-holatlar, narsa-predmetlarni hayotga tatbiq etishda faqat til birlamchi vosita bo‘ladi. Shundan kelib chiqib tilga tatbiq qilishda tarjimonning roli alohida ahamiyatga ega. Adekvatlikni ta‘minlashda esa

lisoniy birliklar alohida o‘rin tutishi shubhasiz. Chunki “til dunyoni aks ettirar ekan, mutlaq tabiiy ravishda unga o‘zidan ham nimalarnidir “qo‘shadi” unga o‘ziga xos shamoyil va tartibot beradi».

Muhokama

Tilda qayta yaratish muammosi bevosita kognitiv jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda nolisoniy omillar ham muhim o‘rin tutadi. Chunki til va tafakkur birligi, ularning o‘zaro munosabati masalasi insonning ruhiy, jismoniy olami, yashash tarzi, sotsial muhit kabilar ham nutqiy jarayonga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Bularning bari tilda adekvatlikni ta‘minlash va qayta yaratish jarayonini belgilaydi.

I.Borolinaning xotirlashicha, Abdulla Qahhor o‘tgan asrning 50-yillarida Kibriyoxonim bilan «Urush va tinchlik» romanini tarjima qilishga kirishgan paytlarda Tolstoy qahramonlari bilan baqamti yashash niyatida Moskvadagi Arbat ko‘chasida yashaydigan tanishlarining uyida turgan va roman qahramonlari ruhiyatiga kirishga intilgan.

Ijodkor bu o‘rinda adekvatlikni ta‘minlashda qo‘l kelishini chuqur his qilgan. Har bir xalq dunyoni o‘z ona tili vositasida ko‘radi. Har bir millat vakili o‘z ona tilisi vositasida olamning lisoniy manzarasini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, olamning kognitiv idrok qilish usuli ham hisoblanadi. Bularni tarjimada aks etishida har bir konsept, freym, geshtalt alohida o‘rin tutadi. Buni chuqur his qilgan Abdulla Qahhor o‘zga xalq adabiyotida alohida voqelik bo‘lishga ulgurgan umrboqiy asar nufuziga sazovor bo‘lgan qissa, roman yoki hikoyani tarjimada o‘rtamiyona asar holiga tushmasligi uchun kurashgan. Ayni paytda o‘z asarlarining boshqa tillarda asliyatdagi darajasini saqlab qolishni tarjima mezoni deb qaragan.

«– To‘g‘ri, siz ajoyib hikoya yozgansiz. Lekin tarjima qilgan odam uni jindek bo‘lsa ham kengaytirgisi, jindek unga qo‘shib qo‘ygisi kelaveradi. Bunday holida esa u o‘ta siqiq, havo etishmayotgandek... – degan edi.

Qahhor baribir ko‘nmasdan:

– Mayli, yomonligicha, ammo-lekin meniki bo‘lib qolsin. Men yozgan narsani «yaxshilashingiz» shart emas, – degan».

Adekvatlikni ta'minlashning lisoniy omili leksik birliklar va ularning konseptosfera yaratish imkoniyati bilan bog'liq bo'lib, ayrim leksik birliklarni o'zgartirilsa, mavjud konseptosfera darz ketadi. Freym va geshtalt strukturalar o'zgaradi. Buni Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana" komediyasi va boshqa asarlari misolida ko'rish mumkin.

Abdulla Qahhorning o'sha paytlarda «Shohi so'zana» komediyasini Moskvaning mashhur «Моссовет» teatri «Yangi yerda» nomi bilan qo'yimoqchi bo'lganida, muallif e'tiroz bildiradi. Bu nom Qahhorga jo'nroq, publitsistik nomdek tuyuladi. Uning ustiga milliy bo'yoq, milliy ruh yo'qolishi mumkin. Abdulla Qahhorning so'zida turib olishi natijasida asar «Shohi so'zana» nomi bilan namoyish etiladi.

Chunki «Yangi yerda» va «Shohi so'zana» konseptining freym va geshtalt strukturalari butunlay boshqa-boshqa bo'lib, bu asar mohiyatini va uning g'oyasini ochib bermas edi. «Yangi», «yer», «shohi», «so'zana» leksemalari ifodalagan tushunchada «eski emas», «joy», «shohlarga xos», «buyum» (devorga osiladigan, bo'yi etgan qizlar tikadigan xalq hunarmandchiligi namunasi) ma'nosi mavjud bo'lsa-da, asar nomi sifatidagi konseptda ularning yaxlit holdagi struktural kompozitsiyasi yuzaga kelgan. Chunki so'zana tikish jarayonida bo'yi yetgan qizlarning beg'ubor o'y-xayollari, zoru-istaklari, umidlari, muhabbati so'zanaga muhrlanadi. «Shohi so'zana» konsepti freym, geshtalt strukturalari bilan ana shunga ishora qiladi.

Abdulla Qahhor asarlarini o'zbek milliy turmush tarzining badiiy ensiklopediyasi deyish mumkin. Bir so'z bilan nishonga tegadigan detallar, imo-ishora orqali o'zbeklarga xos turmush tarzini ifodalash Abdulla Qahhor uslubining tayanch belgisi sanaladi. O'zbek hayoti va turmush tarzini bilimaydigan tarjimon buni tarjimada ifodalay olmasligi aniq. Chunki Abdulla Qahhor qo'llagan detal va ishoralarda nozikta'b til bilimdonining milliy-mental xususiyatlari bilan, o'zbeklarga hos bo'lgan lingvokulturologik belgilar uyg'unlashib ketgan. Ularning badiiy asarda qo'llanishi, har bir so'zni o'rnida ishlata olishi juda keng va ta'sirchan konseptosferani yuzaga keltirgan.

O'z asarlarida xalqona iboralarni badiiy qayta ishlash hollari Abdulla Qahhor ijodiga xos eng muhim badiiy usullardan biri hisoblanadi. Buning natijasida xalqona turg'un iboralarning konseptual strukturasi keskin o'zgaradi. Freym semantikasiga xos o'zaro bog'liq, majoziy, kontekstual bog'lanishlarini topadi, konseptual muhim freymlarni ifodalovchi og'zaki signallarni so'zlar vositasida ifodalaydi. Bularning bari o'quvchining bilim strukturasi, konseptual va muammoviy qarashlarini faollashtiradi. Natijada matn ko'rinishidagi ma'lumotni konseptuallashtirish, ya'ni umumlashtirish, xulosa chiqarish, og'zaki signal va ularning freymlari asosida bilim hosil bo'lish jarayoni yuzaga keladi. Tasvirlanayotgan obyekt haqidagi bilimlar, tafsilotlar, obyekt va subyekt munosabati haqidagi bilimlar o'zaro yaxlitlashib sotsial munosabat majmuini yuzaga keltiradi. Bularning bari kognitiv jarayon mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon natijasida iboralar tarkibidagi ifoda o'zgaradi, jozibadorlik kasb etadi. Ayni paytda siqirligi va ifodaliligi asosida xalqona birliklarga yaqin yangi iboralar paydo bo'ladi. O'zbekcha, ruscha va nemischa iboralarni mushohada qilganimizda har uchala tilda ham xalq tiliga xos jaranglangan iboralarga guvoh bo'lamiz.

Ayrim misollarga murojaat qilamiz. «Aflotunning qizi bo'lsangiz ham gapni tonnalab oling-u, grammlab soting». «Даже мудрецам советуют покупать слова пудами, а продавать золотинками» («Птичка-невеличка», 42), «Auch dem Weizen rat man die Worte pfundweise eunkaufen, aber grammweise zu verkaufen» (Skräter Saida, 41). «To'g'ri, juda to'g'ri: igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o'tirmasag-u, sizning o'rningizga o'sha odamlarimizdan birini kirgizsak» («Sinchalak», 41-bet). «Вот и мне кажется, что нечего лезть с шилом туда, где может и иголка справится!» («Птичка-невеличка», 58). «... daß man die Ahle nicht dort aussetzen soll, Wo die Nadel genugt!» (Skräter Saida, 65). «Aflotunning qizi», «gapni tonnalab ol, grammlab sot», «igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqma» kabi frazeologik birliklar har ikki tilda ham asliyatdagidek o'girilgan. Originallik va ifodaning tabiiyligi saqlangani muallif individual uslubini ifodalashda muhimdir.

Har ikki tarjimada ham tarjimonlar soʻzma-soʻz tarjima usuliga mos ravishda murojaat etganlar. Qissada Mehri Saida huzuriga kelib, oʻzining Zulfiqorov bilan munosabatlari haqida alam bilan soʻzlaydi:

– Men bu itga qanaqa qilib ikkinchi xotin boʻlib qolganimni oʻzim ham bilimayman, – dedi Mehri oʻpkasini tutolmay. Saida uning silliq qilib taralgan va yiltillab turgan sochiga, oʻz ahvolini idrok etib, musibatdan birpasda soʻligan choʻtirroq, toʻla yuziga qaradi va oʻzicha gapirganday, oʻychan:

– It ochiq qolgan qozonni yalaydi, – dedi («Sinchalak», 71-bet).

Bu parchada “it” soʻzi bilan bogʻliq soʻz oʻyinini oʻquvchi sezmasligi mumkin emas. Mehri alam Zulfiqorovni it deb ataydi. Saida unga javoban «It ochiq qolgan qozonni yalaydi» deydi. Uning nutqida oʻrinli qoʻllangan iborada “ochiq qolgan qozon” jumlasini Mehrining oʻzi ham oppoq-gunohsiz emasligiga ishora qiladi.

Mazkur ibora ham rus va nemis tillariga soʻzma-soʻz tarjima qilingan. Lekin katta maʼnoviy yuk, obrazlilik va loʻndalik saqlab qolingan. Biroq oʻzbeklarga xos lingvokulturologik muhit, konseptosfera tarjimada oʻz aksini toʻla topmagan. Garchi iboraning muqobilini topib, adekvat tarjima yaratilgan boʻlsa ham, asarda askiyaga xos hozirjavoblik, aytilgan soʻzdan ilib olish va oʻziga ishora qilish kabi sanʼat oʻzga millat oʻquvchisiga begona boʻlib, iborani toʻla anglab etish, idrok qilish imkonini cheklaydi. Chunki bularning bari konseptual muhit bilan bogʻliq boʻladi.

Tilda adekvatlikni taʼminlashda, ayniqsa, maʼlum matnni oʻz tilidan oʻzga tilga oʻgirish hamma vaqt ham ijobiy natija beravermasligi koʻp bor taʼkidlanadi. Darhaqiqat, tarjimada faqat til bilish kifoya qilmaydi, chunki til bilish adekvatlikni taʼminlashning bir qanoti boʻlib, bu adekvatlikni taʼminlashning lisoniy omili hisoblanadi. Adekvatlikni taʼminlashning nolisoniy omili esa asar simfoniyasini oʻzga muhitni his qilish, oʻsha tilda yashash, dunyoni oʻz tilingda idrok etish darajasida fahmlashni talab etadi.

Abdulla Qahhor asarlarining turli mintaqalarda sevib o'qilishi boisi, yozuvchining o'z iborasi bilan aytganda "xalqning tili uchida" turgan gaplarni aytganligi va umumbashariy muammolarni ko'targanligidadir.

Yozuvchining «Shohi so'zana» komediyasi ingliz, ispan, nemis, polyak, fransuz, yunon, vietnam tillariga tarjima qilingan. Abdulla Qahhorning Osloda norveg tilida «Qobil bobo», Stokgolmda shved tilida «Anor», chex tilida «Dahshat», polyak tilida «Adabiyot muallimi» asarlari e'lon qilingan.

Adekvatlikning ta'minlanishi ijodkor va uning asarlarini o'zga tilda qayta yaratish imkonini beradi. Bu esa ijodkorga katta shuhrat keltirish bilan birga, asar mansub bo'lgan millat, elat, xalq haqida tasavvur uyg'otadi. Abdulla Qahhor asarlari tarjimasida adekvatlikning ta'minlanganligi natijasida u xususida germaniyalik yozuvchilar, tanqidchilar gazeta va jurnallar sahifalarida, ilmiy risolalar, ommaviy kitoblarda adib asarlari fazilatlarini yuksak baholaganlar. «Diye literaturen der Fyolker der Zovetunion» (Leypsig, 1967) to'plamida adabiyotshunos Gerxard Dudekning o'zbek adibi haqidagi fikrlari e'tiborlidir: «Qo'qonlik chilangar o'g'li Abdulla Qahhorning otasi bilan Farg'ona qishloqlarini kezganligi uning keyinchalik yozgan asarlarida haqqoniy ifodasini topdi. Abdulla Qahhorning ijodi ko'p qirrali: u mohir satirik, yirik prozaik, atoqli dramaturg, rus hamda jahon adabiyotining mohir tarjimoni» deb tanishtiradi. Abdulla Qahhorning siqiq, lekin mavzu muhimligi bilan o'quvchilarga manzur novellalari ko'pgina mamlakatlarda sevilib o'qilayotganligi haqida shunday yozadi: «Qozoq Muxtor Avezov, o'zbek Abdulla Qahhor, turkman Berdi Kerboboyev va qirg'iz Chingiz Aytmatov xalqaro miqyosda e'tirof etilgan, ko'pgina xalqlarning hurmatiga sazovor bo'lgan san'atkorlardir».

Germaniyalik adabiyotshunoslarning xolis bahosi adabiyotimiz bilan tanish, jahon madaniyati taqdiriga aloqador mutaxassislarning nuqtai nazari hamdir.

Abdulla Qahhor asarlarining o'zga til vakillari orasida bunday shuhrat topishi faqatgina adibning mahorati bilan belgilanmaydi. Bu birinchi galda, lingvokulturologik omillarning talabidan kelib chiqadi. Nemis xalqi xarakteriga xos bo'lgan aniqlik, fikrlash tarzidagi lo'ndalik, qisqalik kabilar Abdulla Qahhor

hikoyalari strukturasi ham aks etgan. Bu o'z navbatida tarjimonning mahorati bilan ham bog'liq, albatta. Biroq bu o'rinda o'quvchi (tinglovchi) ham muhim o'rin tutadi. Chunki «har bir inson o'z konseptual tizimiga ega bo'ladi». Ma'lum bir tarjima asarini o'qiyotganda, ana shu konseptual tizimdan kelib chiqib baholaydi. Tarjimon esa ikkilamchi konseptuallashtirish jarayonini ta'minlaydi. «Ikkilamchi konseptuallashtirish hamda munosabat, qadriyatlar, stereotiplar kabi boshqa tizimlar doirasidagi ikkilamchi kategoriyalashtirish muhim ahamiyatga ega» bo'ladi.

Xulosa

Adekvatlik talabi mutloq, balki optimal, situation xarakterga ega, ya'ni muloqaot qandaydir kommunikativ vaziyatdagi muayyan shart va vazifalarga mos kelishi kerak. Ya'ni, tarjima matni faqat semiotik darajalardan birida yoki funksional o'lchovlardan birida asliyatga ekvivalent bo'lsa ham, tarjima adekvat deb tan olinishi mumkin. Xususan, ekvivalentlikdan har qanday og'ish tarjimonning o'zboshimchaligi sababli emas, balki lingvistik yoki madaniy-ijtimoiy-madaniy zarurat tufayli yuz beradi. Adekvatlik asl nusxa va tarjima o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash uchun qo'llaniladigan til vositalarini tanlashni hisobga olgan holda baholagan bir vaqtda, ekvivalentlik mazkur parametr hisobga olinmasligi bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar

1. Shomurodov O. Nolisoniy, lisoniy va ovozli omillar: Nurlanish asboblari doir. - T.: Yangi adabiyot, 2008.
2. Rahmonov U. M. Nolisoniy va lisoniy omillar haqida iborat muammo: ilmiy-qonuniy tadqiqot. -T.: Fan va texnologiya, 2015.
3. Pirov G. A. Nolisoniy va lisoniy omillar: nazariy va amaliy asoslar. -T.: Ma'naviyat, 2012.
4. Abdulhayeva Z. K. Nolisoniy va lisoniy omillar: o'zaro bog'lanish va xususiyatlari. -T.: Sayyora, 2010.
5. Sattorov B. Lisoniy va nolisoniy omillarining ta'limiy-amaliy asoslanishi. -T.: Adib, 2014.

6. Sayfullayev A. S. Nolisoniy va lisoniy omillar haqida umumiy ma'lumot. -T.: Sharq, 2011.
7. Jumayev Q. Nolisoniy va lisoniy omillar: tazminot va davomatga ravishda ta'siri. - T.: Iqtisod-moliya, 2013.
8. Ismoilov N. O'zbek tilida nolisoniy va lisoniy omillar muammolarini bartaraf qilishning pedagogik asoslari. -T.: Iqtisodiyot, 2009.
9. Azamova G.S., Khojaliyev I.T. The concept of equivalence in translation and its interpretations. SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY 2022.
10. A'zamova G. NATIONAL-CULTURAL NOTIONS AND THEIR COMBINATION IN ENGLISH AND UZBEK WORKS.
<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1599/1492>
11. Hojaliyev, A'zamova G. Methodology and significance of meaning in translation of uzbek literature.
12. A'zamova G. SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF COGNITIVE CONCEPT IN LINGUISTICS.
13. Г. Азамова. УЛУЧШЕНИЕ УСТНОЙ ПРАКТИКИ